JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 27 - yanvar 24-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumani hududidagi Amir Temur ko`chasi 4R 36 “M-39 avtoyo`li Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum Xalqa yo‘li” avtomobil yo‘liga sun`iy yo`l notekisligi va yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tuman Ichki ishlar bo`limining 2022 yil 09 dekabrdagi 10/6-2650-sonli xati ma`lumot va asos uchun qabul qilinsin va maqullansin.

1. Forish tumani hududidagi 4R 36 “M-39 avtoyo`li, Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum Xalqa yo‘li” avtomobil yo‘liga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

2. Tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (F.Hakimov)ga tuman hududidagi 4R 36 “M-39 avtoyo`li, Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-

Qizilqum Xalqa yo‘li” avtomobil yo‘liga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

4. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

5. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2023 yil 27 yanvardagi
24-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Forish tumani hududidagi Amir Temur ko`chasi 4R 36 “M-39 avtoyo`li Jizzax sh.-Yangiqishloq q.-Qizilcha q.-Qizilqum Xalqa yo‘li” avtomobil yo‘liga sun`iy yo`l notekisligi va yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

T/R	Ko‘cha nomi	Joylashtirish joyi	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1.	**Амир Темур**	PK-68,300	**1**	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi
2.	**Амир Темур**	PK-68,320	**1**	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi
JAMI:			**2**	